



KONSTRUKTIV NIZOLARNI BOSHQARISHNI PSIXOLOGIK OMILLARI(O'SMIRLIK DAVRI MISOLIDA)

Andijon Davlat Chet tillari Instituti,

Ijtimoiy gumanitar fanlar, pedagogika

va psixologiya kafedrası

o'qituvchisi N.X. Xashimova

Anotatsiya : o'smirlar nizolilik darajasini ularning konstruktiv nizoli xatti-harakatlarining shakli va xarakterini inobatga olgan holda psixologik profilaktika va psixologik korreksiyaning kompleks dasturini ishlab chiqish. shaxslararo konstruktiv nizolarning o'smirlarda yuzaga kelish shart-sharoitlarini o'rganish; turlicha xarakter tipiga xos o'smirlarning xulq-atvorlari tavsiflarining mazmun-mohiyatini tahlil qilish; o'smirlik davriga xos konstruktiv nizo darajasini psixologik korreksiya samarali usullarini tanlab olish. nizolilik darajasi, o'smirlar konstruktiv nizo xatti-harakatlarining shakllari va xarakteristikasi korrelyatlarini empirik darajada aniqlash va tizimlashtirish; o'smirlar nizolilik darajasini ularning nizoli xatti-harakatlarining shakli va xarakterini inobatga olgan holda psixologik korreksion ta'sirining amaliy imkoniyatlarini ochib berish.

Kalit sozlar: nizo, o'smirlar, konstruktiv, tarbiya

Ushbu maqolada quyidagilar yoritilgan bolib , barkamol avlod ta'lim - tarbiyasining muhim vazifalaridan biri - har qanday jamiyatning zamonaviy taraqqiyot darajasi hamda uning kelajagini belgilovchi o'z ichki imkoniyatlari, ijodkorlik tashabbuskorlik hamda o'zligini namoyon qila oladigan, jamiyat tomonidan qabul qilinishi va tan olinishida o'z o'zini to'liq namoyon eta oladigan, izlanuvchanlik hamda yaratuvchanlik qobiliyatiga ega shaxslarni kamol toptirishdir. Bugungi kunda Respublikamizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohatlar ko'p jihatdan yoshlarning zamonaviy ta'lim olishi va mehnat qilish imkoniyatini yaratishga qaratilganligi bois u davlat siyosatidagi ustuvor yo'nalish ekanligini isbotlamoqda. Jumladan, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasida yangi ish o'rinlarini yaratish, aholi, eng avvalo, o'rta maxsus va oliy o'quv muassasalarining bitiruvchilari bandligini ta'minlash, uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish va sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish muhim vazifa qilib belgilanganida ham ko'rinadi .Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi muassasalarida psixologik xizmat to'g'risidagi Nizomda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 7 iyundagi 109-sonli "Umumta'lim maktablarining 9-sinf bitiruvchilarini akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarda o'qitish bilan qamrab olishni ta'minlash bo'yicha normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish to'g'risida"gi Qarori (O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2010 y., 23-son, 184-modda) ga muvofiq, O'zbekiston



Respublikasi Xalq ta'limi tizimidagi muassasalarda Psixologik xizmat (keyingi o'rinlarda Psixologik xizmat deb ataladi)ning maqsadi, vazifalari hamda faoliyatining tashkiliy asoslarini belgilab berildi 1. Psixologik xizmat o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis Markazi (keyingi o'rinlarda Respublika tashxis Markazi deb yuritiladi) ning tarkibiy tuzilmasi hisoblanadi. 2. Psixologik xizmat "psixologiya" ixtisosligi bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lgan psixolog yoki qayta tayyorlashdan o'tib, "amaliyotchi psixolog" malakasiga ega bo'lgan oliy ma'lumotli pedagoglar tomonidan amalga oshiriladi. Xalq ta'limi tizimida psixologik xizmatni tashkil etish va bu borada olib boriladigan ishlarni muvofiqlashtirish maqsadida Xalq ta'limi vazirligi tarkibida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va pedagogik-psixologik Respublika tashxis Markazi huzurida «Psixologik xizmatni muvofiqlashtirish Kengashi» tuzildi. Ushbu kengash ta'lim muassasalarida joriy etiladigan psixologik xizmat mazmuni, psixologlarning ish ko'lami va mazmuni O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashxis markazlari, Respublika ilmiy-metodik tashkilotlari, viloyat, tuman, shahar, xalq ta'limi boshqaruv organlari, malaka oshirish institutlari tomonidan ishlab chiqilgan me'yoriy hujjatlar tavsiyanomalar, yo'riqnomalar, metodik qo'llanmalar bilan belgilanishi ta'kidlanadi. Ta'lim tizimidagi psixologning asosiy vazifasi psixik xizmatni muayyan qoida va mezonga asoslanib tashkil qilishdan iborat bo'lib, taraqqiyot psixologiyasi xususiyatlariga binoan psixikaning rivojlanishi, shaxsni shakllantirish qonuniyatlarini amaliyotga tadbiq etish, o'quvchilar jamoasiga bolalar, o'quvchilar va talabalar ta'lim-tarbiyasini individuallashtirishga yordamlashish, ularning qobiliyatlarini shaxsning rivojlanishi darajasiga qarab o'qituvchilarga psixokorreksion ishlarini amalga oshirishda ko'rsatmalar berishdir. Psixologik xizmatning alohida ahamiyat kasb etadigan jihati o'quvchilarning psixik rivojlanishdan orqada qolishi, ularda xulqning buzilishi, ta'limda o'zlashtirishning yomonlashuvi kabilarni o'rganish hisoblanadi.(O'smirlik davri misolida) o'qituvchilari bilan so'rov ; maqsadli kuzatuv va suhbat metodlari.Tadqiqotning ob'ekti Andijon shahar 4-umumiy o'rta ta'lim maktabining 10 - 15 yoshli 180 nafar o'smirlardan iborat.Tadqiqot predmetini o'smirlar nizolilik darajasini va ularning nizoli xatti-harakatlarining shakli va xarakterini inobatga olgan holda maktab psixologining psixologik korreksion faoliyatini tashkil etish.Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. O'smirlik yosh davridagi o'quvchilar o'rtasidagi shaxslararo konstruktiv nizolarni samarali bartaraf etish imkoniyatini yaratuvchi shart-sharoitlar, o'smirlar nizolashish darajasi, ularning nizoli xatti-harakatlari shakli va xarakterini inobatga olish zarurligiga oid ma'lumotlar hamda tadqiqot natijalari pedagogik psixologiya, taraqqiyot psixologiyasi, amaliy psixologiya psixodiagnostika fanlarini yangi ilmiy ma'lumotlar bilan boyitib, ular ko'lamini kengaytiradi.Psixologik korreksiyaning qo'llanilishi o'smirlardagi nizoli vaziyatlarning diagnostikasi, shuningdek, salbiy asoratlar oldini olishning o'ziga xosligi to'g'risidagi ma'lumotlar psixodiagnostika va psixokorreksiya fanlari uchun muhim o'rin egallaydi. Ekspert baholashni o'tkazish uchun o'smirlarning nizoli xatti-harakatlari shakl va xarakterini o'rganish bo'yicha o'qituvchilar va ota-onalar uchun tuzilgan anketalar



psixologik korreksiyaning kompleks dasturini ishlab chiqish imkoniyatini kengaytiradi. Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. O‘smirlik yosh davridagi o‘quvchilar o‘rtasidagi shaxslararo konstruktiv nizolarni samarali bartaraf etish imkoniyatini yaratuvchi shart-sharoitlar, o‘smirlar nizolashish darajasi, ularning nizoli xatti-harakatlari shakl va xarakterini inobatga olish zarurligiga oid ma'lumotlar hamda tadqiqot natijalari pedagogik psixologiya, taraqqiyot psixologiyasi, amaliy psixologiya psixodiagnostika fanlarini yangi ilmiy ma'lumotlar bilan boyitib, ular ko'lamini kengaytiradi. Psixologik korreksiyaning qo'llanilishi o‘smirlardagi nizoli vaziyatlarning diagnostikasi, shuningdek, salbiy asoratlar oldini olishning o‘ziga xosligi to‘g‘risidagi ma'lumotlar psixodiagnostika va psixokorreksiya fanlari uchun muhim o‘rin egallaydi.

Shuning uchun ,ekspert baholashni o‘tkazish uchun o‘smirlarning nizoli xatti-harakatlari shakl va xarakterini o‘rganish bo‘yicha o‘qituvchilar va ota-onalar uchun tuzilgan anketalar psixologik korreksiyaning kompleks dasturini ishlab chiqish imkoniyatini kengaytiradi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o‘qituvchisining psixologiyasi. Toshkent 1999.
2. Davletshin M.G. Psixologiyadan qisqacha izohli lug‘at. Toshkent. 1999.
3. Karimova V.M va boshqalar. Pedagogika. Psixologiya. O‘quv qo‘llanma. T.2009.
4. Xo‘jaev N., Tojiboeva D., Mamaraximov B., SHomuratova N. Kasbiy ta‘lim metodikasi. O‘quv qo‘llanma T.: TDIU.- 2007
5. G‘oziev E.G‘., Mamedov K.Q. Kasb psixologiyasi. Toshkent 2003.
6. G‘oziev E.G‘. Kasb va shaxs. Toshkent 1996.
7. G‘oziev E.G‘. va b. Kasb psixologiya kursidan ma‘ruzalar matni. Toshkent 2000.
8. Qodirov B.R., Qodirov K.R. “Kasbiy tashxis metodikalari” Toshkent-2000y.